


Buxoro viloyatida 2019 yil yanvar - may oylarida qurilish ishlari.

2019 yilning yanvar - may oylarida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1607.7 mIrd. so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati 110.3 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi, jamiga nisbatan foizda.



Yirik pudrat tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

Yirik pudrat tash. -239.2 mIrd.so'm

Kichik korxona va mik. -919.3 mIrd. so'm

Norasmiy sektor - 449.2 mIrd. so'm

Qurilish ishlari, foizlarda



Joriy yilning yanvar-may oylarida Buxoro viloyatida o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1607,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish surati 110,3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 239,2 mlrd. so‘mni, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 919,3 mlrd. so‘mni hamda norasmiy sektor bo‘yicha 449,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi.


Mos ravishda yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur'ati 124,9 % ni, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur'ati 107,6 % ni va norasmiy sektor bo‘yicha o‘sish sur'ati 109,3 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik korxona va tashkilotlarning ulushi 1,7 foizga oshgan, kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi 1,7 foizga kamaygan, norasmiy sektor ulushi o’zgarmagan.


Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo‘yicha taqsimoti

2019 yil yanvar-may

(jamiga nisbatan foizda)



2018 yil yanvar-may
(jamiga nisbatan foizda)



Qurilish ishlarning umumiy hajmidan 61,9 foizi yoki 995,7 mlrd. so‘m - yangi qurilish, rekonstruksiya, kentgaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o‘tgan yilning mos davrida 61,2 foiz yoki 846,6 mlrd. so‘m), 38,1 foizi yoki 612,0 mlrd. so‘m (o‘tgan yilning mos davrida 38,8 foizi yoki 536,5 mlrd. so‘m) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to‘g‘ri keladi.


Kichik korxona va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob'yektlarini (maktablar, kollejlar, sport hamda sog‘liqni saqlash ob'yektlar va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo‘ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

2019 yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari	mlrd.so‘m
Bino va inshootlar qurilishi	1109.4
Fuqorolik ob'yektlarini qurilishi	263.1
Ixtisoslashtirilgan qurilish	235,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bino va ishootlarni qurilishiga 1109,4 mlrd. so‘m, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 69,0 foizni (o‘tgan yilning mos davrida 947,0 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 68,5 foiz), fuqarolik ob'yektlarini qurilishiga 263,1 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 16,4 foizni (o‘tgan yilning mos davrida 223,3 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 16,1 foiz) va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 235,2 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 14,6 foizni (o‘tgan yilning mos davrida 212,7 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 15,4 foiz) tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining umumiy hajmiga nisbatan ulushi, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,5 foiz punktga ko‘paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari hajmi o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,3 foiz punktga ko‘paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,8 foiz punktga kamaydi.

2019 yilning yanvar-may oylarida mulkchilik shakli bo‘yicha qurilish ishlari hajmi



Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalari tomonidan 1503,6 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 108,4 foizni tashkil qilgan. Umumiylajmiy hajmga nisbatan ulushi 93,5 foizni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 foiz punktga kamaygan.

Davlat mulkchilik shakli tomonidan 104,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 149,3 foizni tashkil qilgan. Umumiylajmiy hajmga nisbatan ulushi 6,5 foizni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 foiz punktga ko‘paygan.


2019 yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

	2019 yil yanvar-may	2018 yil yanvar-may	O'sish sur'ati, % da
Jami	1607,7	1383,1	110,3
Buxoro sh	378,8	284,7	126,3
Kogon sh	50,1	45,7	104,4
Olot	109,1	91,8	112,8
Buxoro	154,5	114,6	127,9
Vobkent	36,7	49,1	71,0
G'ijduvon	140,8	128,8	103,4
Kogon	117,5	107,3	104,3
Qorako'l	56,5	58,4	91,8
Qorovulbozor	101,6	116,1	83,4
Peshko'	104,0	62,0	158,7
Romitan	132,8	113,2	111,5
Jondor	88,1	98,2	85,0
Shofirkon	137,2	113,3	114,9

Viloyatda qurilish ishlari hajmida eng yuqori o'rinni Buxoro shahri egalladi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 378,8 mlrd. so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,3 foizni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Buxoro tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 154,5 mlrd. so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,9 foizni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida qurilish ishlaring ulushi, foizda



Qurilish ishlari umumiy hajmida 23,6 foiz ulush bilan Buxoro shahri yetakchilikni egalladi. Keyingi pog'onani 9,6 foiz ulush bilan Buxoro tumani egalladi. Uchinchi o'rinni 8,8 foiz ulush bilan G'ijduvon tumani egalladi.